

TA'LIMDA ADAPTIV BOSHQARISH: NAZARIY ASOSLARI, XUSUSIYATLARI VA AMALIY IMKONIYATLARI

Nabiyeva Madina Abdurashid qizi,

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18933107>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimida adaptiv boshqarish konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari, uning mazmun-mohiyati, funksional xususiyatlari hamda zamonaviy ta'lim muassasalarida qo'llash mexanizmlari tahlil qilinadi. Adaptiv boshqaruv ta'lim tizimining ichki va tashqi o'zgaruvchan muhitiga moslashuvchan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ta'lim sifati hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: adaptiv boshqaruv, ta'lim menejmenti, moslashuvchan boshqaruv, raqamli transformatsiya, ta'lim sifati, strategik boshqaruv.

Аннотация. В данной статье анализируются научно-теоретические основы концепции адаптивного управления в системе образования, ее сущность, функциональные особенности и механизмы применения в современных образовательных учреждениях. Обосновано, что адаптивное управление служит повышению качества образования и эффективности управления путем разработки и реализации управленческих решений, адаптированных к внутренней и внешней изменяющейся среде системы образования.

Ключевые слова: адаптивное управление, управление образованием, адаптивное управление, цифровая трансформация, качество образования, стратегическое управление.

Abstract. This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the concept of adaptive management in the education system, its essence, functional characteristics, and the mechanisms for its implementation in modern educational institutions. The study substantiates that adaptive management contributes to improving the quality of education and the effectiveness of management by developing and implementing flexible management decisions that respond to the changing internal and external environment of the education system.

Keywords: adaptive management, educational management, flexible management, digital transformation, education quality, strategic management.

Kirish. Adaptiv boshqarish – bu tizimning tashqi va ichki muhitidagi o'zgarishlarga mos ravishda boshqaruv qarorlarini doimiy ravishda yangilab borish, monitoring natijalari asosida tuzatishlar kiritish hamda qayta aloqa mexanizmlariga tayangan holda rivojlanishni ta'minlash jarayonidir. Adaptiv boshqarish tushunchasi tizimli yondashuv, kibernetika va strategik menejment nazariyalariga asoslanadi. Ilmiy adabiyotlarda adaptiv boshqaruv tashkilotning tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarni monitoring qilish, tahlil etish hamda boshqaruv strategiyalarini moslashtirib borish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ta'limda adaptiv boshqaruv o'quv-tarbiya jarayonini, pedagogik kadrlar faoliyatini va boshqaruv resurslarini muhit talablariga mos ravishda optimallashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ta'limda adaptiv boshqaruv quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi: moslashuvchanlik, tizimlilik, prognozlashga yo'naltirilganlik, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va innovatsionlik. Raqamli texnologiyalar

adaptiv boshqaruvning muhim vositasi hisoblanadi. Elektron boshqaruv tizimlari, o'quv analitikasi va sun'iy intellekt asosidagi platformalar boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Ye.Balganova, Ye.Bagaeva, Ye.Voronina, A.Galimov, A.Gorelova, S.Danilov, R.Davlatov, G.Shaporenkova, N.Lsenko, Yu.Markelova, Ye.Levina kabilar gorizontaal va vertikal aloqalarni maqbul uyg'unlashtirish orqali ta'lim tashkilotlarini adaptiv boshqarish, oliy ta'limda innovatsion faoliyat samaradorligini baholash, oliy ta'lim pedagoglari va rahbar-kadrlarida innovatsion va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy-ta'limiy faoliyat doirasida oliy ta'lim muassasalarining klasterli o'zaro samarali harakatini boshqarish masalalarini o'rganishgan.

Xorijlik olimlardan X.Botikario, M.Bernard, A.Nyuman, S.Chen, P.Henning, S.Syuy, A.Jons, S.Kinash, S.Klinkenberg, B.Prasti, E.Verdu, G.Vayt kabilar oliy ta'lim institutlari uchun adaptiv o'qitish tizimini boshqarish, statistikada onlayn o'qitishni baholash, oliy ta'limda adaptiv o'qitish jarayonini jadallashtirish, elektron o'qitish tizimini personallashtirish, adaptiv o'quv adabiyotlarini yaratish jarayonlarini boshqarish muammolari va ularning yechimlarini yoritib berishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ta'limda adaptiv boshqaruv konsepsiyasini o'rganishda nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilinib, ta'lim muassasalarida adaptiv boshqaruvni joriy etishning samarali mexanizmlari umumlashtirildi. Natijalar asosida ta'lim tizimida adaptiv boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlillar va natijalar. Bugungi globallashtirish, raqamlashtirish va bilimlar iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, pedagog va rahbar kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, ularning zamonaviy kompetensiyalarini muntazam yangilab borish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish jarayonini samarali boshqarish, uni zamon talablari va shaxsiy ehtiyojlarga mos ravishda tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Adaptiv boshqaruvni samarali joriy etish strategik rejalashtirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, institutsional monitoring va baholash tizimlarini takomillashtirishni talab etadi.

An'anaviy malaka oshirish tizimlari ko'pincha standartlashtirilgan, qat'iy va moslashuvchanlik darajasi past bo'lib, tinglovchilarning individual ehtiyojlari, kasbiy faoliyatidagi real muammolari hamda mehnat bozori talablarini yetarli darajada inobatga olmaydi. Bu esa malaka oshirish natijalarining amaliy samaradorligini pasaytiradi. Shu bois, adaptiv boshqaruv tizimlarini joriy etish, ya'ni malaka oshirish jarayonini tashqi va

ichki o'zgarishlarga mos ravishda tezkor boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqalar) tajribasida malaka oshirish tizimi kompetensiyaga asoslangan, modul va kredit tizimlari, raqamli platformalar, individual o'quv trayektoriyalari hamda ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqaruv yondashuvlari asosida tashkil etilmoqda. Ushbu tajribalar adaptiv boshqaruv tamoyillarining samaradorligini amalda isbotlab bermoqda. Biroq mazkur yondashuvlarni milliy ta'lim tizimiga bevosita ko'chirish emas, balki mahalliy sharoit, normativ-huquqiy baza, kadrlar salohiyati va institutsional imkoniyatlarni hisobga olgan holda moslashtirish (adaptatsiya qilish) ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi, raqamli ta'limni keng joriy etish, uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlarini yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur hujjatlarda malaka oshirish tizimini moslashuvchan, shaffof va natijador qilish zarurati alohida ta'kidlangan. Shunga qaramay, amaliyotda malaka oshirish jarayonini adaptiv boshqarishga oid yaxlit model, mezonlar, indikatorlar va boshqaruv mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Xalqaro tajribalarni (UNESCO, OECD, EU, AQSh, Buyuk Britaniya) o'rganish asosida malaka oshirish jarayonini adaptiv boshqarish tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy asoslash. Xalqaro ta'lim tizimlarida (OECD, Yevropa Ittifoqi va rivojlangan mamlakatlar) qo'llanilayotgan malaka oshirishni boshqarish yondashuvlari tahlili asosida malaka oshirish jarayonini adaptiv boshqarishning integrativ modeli ishlab chiqildi va milliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish.

Xalqaro tajribalarni malaka oshirish tizimiga joriy etishda adaptatsiya mezonlari va indikatorlari (institutsional, kompetensiyaviy, texnologik va tashkiliy) ishlab chiqish hamda ularning amaliy qo'llash mexanizmlari asoslash. Malaka oshirish jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish asosida adaptiv boshqaruvni amalga oshirishning funksional algoritmi ishlab chiqish. Malaka oshirish jarayonini adaptiv boshqarish samaradorligini baholash uchun mezonlar va darajalar tizimi (motivatsion, kognitiv, faoliyatli va reflektiv komponentlar asosida) aniqlashtirildi va takomillashtirish.

Oliy ta'lim muassasasi rahbari faoliyatida zamonaviy boshqaruvni rivojlantirishning va amalga oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy tavsiya hamda takliflar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Shu jihatdan, malaka oshirish jarayonini xalqaro ilg'or tajribalar asosida adaptiv boshqarish tizimini takomillashtirish masalasi nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va

amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, pedagog va rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu muammoni ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asoslash, adaptiv boshqaruvning samarali modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta'limda adaptiv boshqarish zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik mexanizm hisoblanadi. U boshqaruv samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishida adaptiv boshqaruv muhim ahamiyatga ega. Avvalo, u ta'lim muassasalarining tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob qaytarishini ta'minlaydi. Masalan, yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari yoki mehnat bozorining yangi talablariga mos ravishda ta'lim mazmunini yangilash zarurati yuzaga kelganda adaptiv boshqaruv tizimi bu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu orqali ta'lim tizimi doimiy yangilanish va rivojlanish jarayonida bo'ladi.

Adaptiv boshqaruv ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda boshqaruv qarorlari qat'iy va o'zgarmas shaklda emas, balki mavjud vaziyat va ehtiyojlarga mos ravishda qabul qilinadi. Adaptiv boshqaruv rahbarlardan tahliliy fikrlash, innovatsion yondashuv hamda strategik rejalashtirish kompetensiyalarini talab qiladi. Natijada boshqaruv jarayoni yanada moslashuvchan, samarali va natijador bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. London.
2. Fullan M. Educational Change and Leadership. New York.
3. OECD. Education Policy Outlook.
4. Ta'lim menejmenti va raqamli boshqaruv bo'yicha ilmiy maqolalar.
5. Kurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Turon-Iqbol, 2006. – 542 b.
6. Казначеев В.П. Современные аспекты адаптации. – Новосибирск, 2000. – 192 с.
7. Полоневич Т.Б. Адаптация выпускника вуза к условиям рынка труда: проблема конкурентоспособности // Социология. – 2011. – №2. – С.105–112.
8. Ромм М.В. Адаптация личности в социуме: Теоретико-методологический аспект. – Новосибирск: Наука. Сиб. издательская фирма РАН, 2002. – 275.
9. Klinkenberg S., Straatemeier M., van der Maas H.L.J. Computer adaptive practice of maths ability using a new item response model for on the fly ability and difficulty estimation // Computers & Education. 2011. – Vol. 57. – №. 2. – P. 1813–1824.
10. Багаева Е.П. Педагогическая модель адаптивного управления качеством образовательной деятельности студентов вуза: дисс. ... канд.пед.наук. – Казань, 2021. – 191 с.